



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI**  
**QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**  
**BUYRUQ**

2023-yil 27 aprel

№ 10-son

Nukus shahri

**2023-yilda Davlat reestriga kiritilgan, istiqbolli va yangi g'oz navlarining  
elita, birinchi avlodli urug'larini yetishtirish to'g'risida**

So'nggi yillarda Mamlakatimizda qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligiga juda katta e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-106-sonli qarorda qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini tubdan modernizatsiya qilish, sifatli va raqobatbardosh urug'lik mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni o'zaro integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shundan kelib chiqib, 2023-yil paxta hosili yetishtirish uchun ekilishi belgilangan, Davlat reestriga kiritilgan, istiqbolli va yangi g'oz navlarining elita urug'larini ko'paytiruvchi elita urug'chilik xo'jaliklarini o'z vaqtida birlamchi urug'lik materiallari bilan ta'minlash hamda kelgusi 2024-yil hosili uchun yetarli miqdorda yuqori avlodli urug'lik fondlarini yaratish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 20-apreldagi "2023-yilda Davlat reestriga kiritilgan, istiqbolli va yangi g'oz navlarining elita, birinchi avlodli urug'larini yetishtirish to'g'risida"gi 77-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2023-yilda ekiladigan Davlat reestriga kiritilgan g'oz navlarining elita avlodli urug'larini yetishtiruvchi elita urug'chilik xo'jaliklarining ekin maydoni va urug'lik paxta yetishtirish rejasi 1-ilovaga muvofiq;

2023-yilda ekiladigan g'ozaning yangicha istiqbolli urug'larini dastlabki ko'paytiruvchi elita urug'chilik xo'jaliklarining ekin maydoni va urug'lik paxta tayyorlash rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.



3. Urug'chilikni rivojlantirish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Sabirov), tuman qishloq xo'jaligi bo'limlari boshliqlariga g'o'za navlarini to'g'ri joylashtirish, dalalarni chigit ekishga tayyorlashdan boshlab, paxta yig'im-terimi tugaguniga qadar o'tkaziladigan barcha agrotexnik tadbirlarning bajarilishi ustidan doimiy monitoring yuritish va uning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yil yakuni bo'yicha umumlashtirilgan holda vazirlik rahbariyatiga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Qishloq xo'jaligi Paxtachilik va texnik ekinlar, bo'limi (Seytnazarov) va Dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirish bo'limi (Bekniyazov) 2023-yilda Davlat reestriga kiritilgan, istiqbolli va yangi g'o'za navlarini urug'larini dastlabki ko'paytiruvchi elita urug'chilik xo'jaliklarida g'o'zani parvarishlash bo'yicha barcha agrotexnik tadbirlarning bajarilishini muvofiqlashtirib borsin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari (Nurmuhammadov) zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



Z.Ziyadullayev

**Kiritildi:**

Paxtachilik va texnik ekinlari bo'limi bosh mutaxassisi



B.Seytnazarov


“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari



N.Seytniyazov

**Kelishildi:**

Vazirning birinchi o‘rinbosari




F.Nurmuhammadov

“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i




S.Sabirov

Dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirish masalalari bo'yicha yetakchi mutaxassisi



B.Bekniyazov

Bosh yuriskonsult



K.Oteпов



2023-yilda ekanadigan Davlat reestriga kiritilgan g'o'za navlarining elita avlodli urug'larini etishtiruvchi elita urug'chilik xo'jaliklarining ekin maydoni va urug'lik paxta etishtirish

REJASI

№	Tuman va elita urug'chilik xo'jaligi mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining (EUX MChJ) nomi	G'o'za navi	Elita maydoni, ga					Urug'lik paxta		
			1- yil urug'lik ko'chat-zori	2- yil urug'lik ko'chat-zori	Urug' ko'paytirish uchastkasi	Jami ekin maydoni	xo'jalikning o'rtacha hosildorligi ts/ga	1 gektardan urug'lik paxta terish rejasi, ts/ga	Jami teriladigan urug'lik paxta miqdori, tn	
			4	5	6	7	8	9	10	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
1	To'rtko'l EUX MChJ	Sulton	1,1	2,9	36,0	40,0	35,0	13,5	53,9	
2	Ellikqal'a EUX MChJ	Sulton	1,1	2,9	37,6	41,6	35,0	13,5	56,1	
3	Xo'jayli EUX MChJ	S-4727	1,1	2,9	36,0	40,0	35,0	13,5	53,9	
4	Chimboy EUX MChJ	Chimboy-5018	1,1	2,9	46,0	50,0	35,0	13,5	67,4	
<b>Jami:</b>			<b>4,4</b>	<b>11,6</b>	<b>155,6</b>	<b>171,6</b>			<b>231,3</b>	

Izoh: \* Haqiqiy olinadigan urug'lik paxta hosili 3-dala ko'righi natijasiga asosan belgilanadi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi  
 Qishloq xo'jaligi vazirligining  
 2023 yil 24 apreldagi  
 10 -sonli buyrug'iga  
 2-ilova

2023-yilda ekiladigan g'o'zaning yangi va istiqbolli navlari urug'larini dastlabki ko'paytiruvchi elita urug'chilik  
 xo'jaliklarining ekin maydoni va urug'lik paxta tayyorlash  
 REJASI

№	G'o'zaning yangi va istiqbolli navlari urug'larini dastlabki ko'paytiruvchi elita urug'chilik xo'jaliklari nomi	G'o'za navi	Original va elita						1-avlod			
			Original urug'lar maydoni, ga			Urug'lik paxta			Ekin maydoni, ga	1 gektardan urug'lik paxta terish rejasi, ts/ga	Jami teriladigan urug'lik paxta miqdori, tn	
			1- yil urug'lik ko'chat-zori	2- yil urug'lik ko'chat-zori	Urug' ko'paytirish uchastkasi	Jami ekin maydoni	Xo'jalikning o'rtacha hosildorligi ts/ga	1 gektardan urug'lik paxta terish rejasi, ts/ga				Jami tayyorlanadigan urug'lik paxta miqdori, tn
1		3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
		S-4728	0,3		0,7	1,0	25,0	12,5	1,3	40,0	12,5	50,0
		KK-3535	0,3		0,7	1,0	25,0	12,5	1,3	1,0	12,5	1,3
		Ravnaq-2	0,3		0,7	1,0	25,0	12,5	1,3	1,0	12,5	1,3
		To'lqin	0,3		0,7	1,0	25,0	12,5	1,3	1,0	12,5	1,3
		Mang'it-1	0,3		0,7	1,0	25,0	12,5	1,3	1,0	12,5	1,3
		Mang'it-2	0,3		0,7	1,0	25,0	12,5	1,3			
	<b>Jami</b>		<b>1,8</b>		<b>4,2</b>	<b>6,0</b>			<b>7,5</b>	<b>44,0</b>		<b>55,0</b>

PSUEAITI Taxiatosh "Azamat"  
 ya.n.u.d.k.e.u.f.x